

Tariflarning bagajsiz va qaytarib berilmaydigan turlarini kiritish

2021 27 Mart

Hurmatli yo'lovchilar!

Ushbu bilan Sizlarga bagajsiz va qaytarilmaydigan tariflar turlari kiritilganligi, hamda PIECE CONCEPT (bagajlar soniga ko'ra) tartibi bo'yicha bagaj qoidalariga o'tilganligi haqida ma'lum qilamiz.

Bagajsiz/qaytarilmaydigan tariflar uchun quyidagi qoidalar amal qiladi:

1. Olib o'tiladigan bagaj me'yori – 0 ta (0PC)
2. Qo'l yuki me'yori – 1 ta 8 kg gacha (1PC)
3. Qaytarish holatida:
 - reys uchib ketishidan oldin tashuvning foydalanimagan uchaskalaridagi yoqilg'i yig'imi va e'lon qilingan aeroport yig'implari qaytarilishi lozim,
 - reys uchib ketganidan keyin tashuvning foydalanimagan uchastkalarida faqatgina e'lon qilingan aeroport yig'implari qaytarilishi lozim;
4. Qayta bronlash/qayta rasmiylashtirish holatida:
 - Reys uchib ketishidan oldin qayta bronlash/ qayta rasmiylashtirish uchun belgilangan yig'im undiriladi,
 - Reys uchib ketganidan keyin qayta bronlash/qayta rasmiylashtirish taqiqlanadi;
5. Qaytarilmaydigan/ bagajsiz tariflar qaytarish va olib o'tiladigan bepul bagaj me'yori shartini ko'zda tutgan tariflar bilan kombinatsiya qilinmaydi;
6. Bronlash klassini qaytarilmaydigan/bagajsiz klassidan qaytariladigan/bagajlisiga ko'tarish taqiqlanadi.

Hurmatli yo'lovchilar!

E'tiboringizni quyidagilarga qaratamiz:

O'zbekistondan Dubay/Sharja/Istanbul/Nyu-York va orqaga qaytish yo'nalishlarida olib o'tiladigan bagajning kamaytirilgan me'yorli qaytarilmaydigan tariflari kiritilgan:

- O'zbekiston – Dubay/Sharja/Istanbul va orqaga qaytish yo'nalishida qaytarilmaydigan tariflar uchun olib o'tiladigan bagaj me'yori - 20 kg, chaqaloq (INF) toifasidagi yo'lovchilar uchun - 10 kg belgilangan.
- O'zbekiston – Nyu-York va orqaga qaytish yo'alishida qaytarilmaydigan tariflar uchun olib o'tiladigan bagaj me'yori 1 o'rinni 23 kg gacha (1PC), chaqaloq (INF) toifasidagi yo'lovchilar uchun - 1 o'rinni 10 kggacha (1PC) etib belgilangan

Shu bilan birga qaytarish va qayta rasmiylashtirish holatida olib o'tiladigan bagajning kamaytirilgan me'yorli mazkur tariflar uchun alohida shartlar amal qiladi.